

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251759>

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YIN VA METODLARDAN FOYDALANISHNING O‘RNI

Abdullayeva Zuhra

Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti
Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 201-guruh talabasi

Hamrayev.M.A

Ilmiy rahbar: Nizomiy nomidagi TDPU
Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti dostenti, filologiya fanlari nomzodi
E-mail: m.a.hamrayev@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda ona tili darsini o‘tishda turli xil metod va didaktik o‘yinlardan foydalanishning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Metod, didaktika, o‘yin, usul, ta‘lim, dars, sinf, ta‘lim jarayoni, interfaol metod.

Аннотация: В данной статье раскрывается важность использования различных методов и дидактических игр при обучении родному языку в начальных классах.

Ключевые слова: Метод, дидактика, игра, метод, обучение, урок, класс, учебный процесс, интерактивный метод.

Abstract: This article reveals the importance of using various methods and didactic games when teaching the native language in primary school.

Key words: Method, didactics, game, method, training, lesson, class, educational process, interactive method.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki, Ta'lim - dunyoni qutqaruvchi eng kuchli qurol hisoblanadi.

Dunyo pedagogika sohasidagi yetuk olimlarning fikricha, Bolaning bilim olishda eng muhimi davr bu-boshlang'ich ta'limdir.

Shu sababli boshlang'ich sinflarda o'tiladigan darslar, mavzular o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida ahamiyatga ega.

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ham o'z nutqlaridan birida

"Agar mendan sizni nima qiynaydi? - deb so'rasangiz farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi" - deb javob bergan ekanlar.

Chunki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy ta'limiy tarbiya asoslari turadi.

Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim darslariga o'quvchilarni qiziqishini oshirishga katta e'tibor berish kerak.

Chunki bolalar boshlang'ich sinfdaligidanoq "DARS" degan so'zdan bezib qolmasliklari lozim. Sababi dars boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun asosiy faoliyatlaridan biri hisoblanadi.

Buning oldini olish uchun hozirgi kunda tajribali, mahoratli o'qituvchilar o'quvchilarni darsga yanada qiziqtirish uchun turli xil metod va didaktik o'yinlardan foydalanishmoqda.

Metod -bu (yunoncha "metodos"- bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) Voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l yo'riqlar, usullar majmuasi hisoblanadi.

Metodlardan har qanday dars jarayonida, mavzuga qarab, tanlab foydalanish mumkin.

Ona tili darslarini tashkil etishda va uni yanada qiziqarliroq bo'lishi uchun turli xil metodlardan ham foydalanishimiz mumkin. Bu vaqtgacha yani XX asrning oxirlarigacha o'qitish metodlari bo'lib kelganlar: tushuntirish metodi, bayon metodi, besh barmoq metodi, suhbat metodi, analiz-sintez metodi,

Induktiv va deduktiv metodi va boshqa metodlardan foydalanilgan.

Bundan tashqari ona tili darslarida didaktik o'yinlardan ham faol qo'llanilgan. Didaktika-bu "o'rgatuvchi", "ta'lim beruvchi" degan ma'nolarni bildiradi. Didaktika atamasi birinchi marta XVII asrda ishlatila boshlangan. Didaktik o'yinlarni darsda qo'llash o'quvchilarda aqliy, jismoniy, psixologik, estetik va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlarga:

Aqliy hujum

BBB

Klaster

A4

Va boshqalar kiradi

Darsda didaktik interfaol metodlardan foydalanishimiz ham mumkin.

Bu ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali bilimlarni o'zlashtirishni kafolatlash, Shaxsiy xarakterini rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi va uning asosiy maqsadi-norasmiy bahs munozaralar o'tkazish, mavzuni erkin gapirish, mustaqil o'qish, o'rganish, bor mahoratini ko'rsata bilish, kichik-katta guruh bilan ishlash, vazifalar berish va boshqalardan iborat.

Ona tili darslarida o'quvchilarga tushuntirish qiyinroq bo'lgan mavzularni ta'limiy didaktik o'yinlar orqali tushuntirishimiz mumkin.

Misol uchun, "Davom ettir" o'yini.

Bunda bir o'quvchi ona tiliga oid atama aytadi. Ikkinchi o'quvchi aytilgan atamaning oxirgi harfiga boshqa bir atama aytadi va bu o'yin o'quvchilar soni tugaguncha davom etadi.

Masalan: To'ldiruvchi-inkor-ravish-shaxs-son va hokazo.

Bu metod va didaktik o'yinlarni dars davomida qo'llash orqali darsni yanada qiziqarli o'tishi, hamda darsga qiziqmaydigan va qatnashmaydigan o'quvchilarni ham o'yin orqali darsga qiziqtirib, mavzuni sekin-asta o'zlashtirishni ta'minlash mumkin.

Har bir ta'limiy vazifani bajarishda aniq va ilmiy metodik usullar mavjud va ular turli xil zamonaviy usullar bilan ko'paymoqda.

Ona tili inson hayotida katta ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'rgatish orqali bilim berish bilan birga o'quvchining shaxsini tarbiyalab, uning qalbida o'z ona tiliga, yurtiga mehrini uyg'otish va uni yanada mustahkamlash mumkin. Masalan,

1-4-sinf Ona tili darsliklaridagi berilgan qisqa matn va hikoyalar bolaga yaxshilik va yomonlikni farqlay olish, haqiqat va adolat uchun kurashish kabi his tuyg'ularni uyg'otadi.

XULOSA

Shuni ta'kidlash kerakki har bir pedagog ya'ni o'qituvchi har bir darsda qandaydir metod yoki didaktik o'yinni qo'llashdan oldin rejalashtirib, mavzuga moslab tayyor bo'lib kelishi kerak.

Didaktik o'yinlardan keng foydalanish an'analari o'qituvchilarning amaliy tajribalari va olimlarning ishlarini keng rivojlantirmoqda.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarda faqatgina o'yin faoliyatiga qiziqishini emas, balki o'yin orqali so'z boyligini oshirishga, lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishga, nutqini o'stirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirzoyoyev nutqi "Xalq so'zi" gazetasi.
2. A.I Hayitov Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi innovatsiya va integratsiyasi(uslubiy qo'llanma)
3. N.N.Ne'matova "Guruhlarni tashkil etishning interfaol metodlari"
4. Abdullayeva Z.A "Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi"
5. Bo'ranova Sh "Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish"